BUXORO VILOYATI BUXORO TUMANI HOKIMINING
QARORI

200400, Gala-osiyo shahri, Buyuk ipak yo'li shoh ko'chasi, 54-uy, tel: (365) 54-25-762, 54-23-215, e-mail:buxoro.t@exat.uz

2022 - yil 30 - sentabr 415-2-32-Q/22 Buxoro tuman hokimligi

Buxoro tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Buxoro tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari A.Mirzayev, tuman obodonlashtirish boshqarmasi I.Xodjiyevlarga:

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Sanitariya qoidalari va meyorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish topshrilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i I.Xodjiyevga:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, “Galaosiyo ovozi” gazetasida rasman e’lon kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunakatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Mirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Q.Juraev**

Buxoro tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
415-2-32-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Buxoro tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

TARIFLAR MIQDORI

T/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	Bir o‘ringa	50 %
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	Bir o‘ringa	50 %
3	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar kichik o‘lchamda)	Bir o‘ringa	30 %
4	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar 3 yoshgacha	Bir o‘ringa	Bepul
5	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
6	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin kuniga	Bepul

Izoh: *Buxoro tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori bazaviy hisoblash miqdori ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.*